

ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARIDAGI NAQLLARNING BOLALAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDAGI AHAMIYATI

Norbekova Sitara Zayniddin qizi

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarining tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan. Undagi hikmatli so‘zlar sharhi keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *naql, ta’lim, tarbiya, inson, jamiyat, axloq, ma’naviy, barkamol, yetuk, ma’rifat, saodat.*

Аннотация: *В данной статье освещается воспитательное значение труда Абдуллы Авлони «Турецкий Гулистан или Этика». Мудрые слова в нем комментируются.*

Ключевые слова: *речь, воспитание, обучение, человек, общество, нравственность, духовность, зрелость, просвещение, счастье.*

Annotation: *This article highlights the educational significance of Abdulla Avloni's work “Turkish Gulistan or Ethics”. The wise words in it are commented on.*

Keys words: *speech, education, training, human, society, morality, spiritual, mature, mature, enlightenment, happiness.*

Barchamizga ma’lumki, har bir davlatning boyligi uning dur-u javohirlariga emas, balki ma’naviy to’kisligiga qarab baholanadi. Ertangi kun egalari bo’lgan yosh avlodni munosib darajada ta’lim-tarbiya etmoqlik ham moddiy boylıklar evaziga emas, ma’naviy-ma’rifiy xazinalarga bog’liq bo’ladi. Shunday ekan, xalqni ma’nan boy bo’lishini istab, jon dili bilan harakat qiladigan, xalq dardida yonadigan fidokor insonlar ham kamdan-kam topiladi. Ma’rifatparvar bobomiz, pedagog Abdulla Avloniy o’sha noyob insonlar qatorida eng oliy o’rinlarni egallab turgan shaxs sanaladi. Xalqni ilmfan nurlaridan bahramand qilishni o’zining birdan-bir burchi deb biladi va bu yo’lda ham moddiy ham ma’naviy tomondan xalq uchun fidokor xizmatlar olib boradi. U bolalar uchun yangi maktab ochib, bu maktabda bolalarni o’zi o’qitadi. Tez savod chiqarishga yordam beruvchi va ilm-ma’rifatning ahamiyatini o’zgacha talqin etuvchi darsliklar yozadi. “Birinchi muallim” - hozirgi alifbe, “Ikkinchi muallim” esa o’qish darsligi o’rnida katta rol o’ynaydi. Adib qalamiga mansub 4 kitobdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” deb nomlangan asari ham borki, unda xalqni ma’rifatga, ziyoga intilgandek ilmga intilmoqqa va yaxshi xulq-odatlarning egasi bo’lishlikka chorlovchi da’vatlarni ko’rishimiz mumkin. U yaratgan asar va darsliklari o’zining bolalar saviyasiga mosligi, o’quvchilarni tezroq savodli qilishga yo’naltirilganligi bilan boshqa ta’limiy kitoblardan alohida ajralib turadi. Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari yoshlarning axloqiy tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo’lib, yosh

avlod uchun ma'rifat darsligidir. Bu asarni quyoshga qiyoslasak, quyoshning nuri tugamaganidek, bu asarning ham o'zidan taratayotgan ta'limiy-tarbiyaviy ziyosi cheksizdir. Badiiy adabiyotda barchamizga tanish bo'lgan xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan naql janri bor. Naqlar turmushdagi narsa va hodisalarni izohlashga qaratilgan axloqiy-didaktik mazmundagi hikoyalar sanaladi. Xalq donoligining o'ziga xos ifodasi bo'lib, besabab aytilmaydi, biror muhokamaga sabab bo'ladigan voqeaga oydinlik kiritish, tahlil qilish yuzasidan yoziladi. Ko'tarilgan masala borasida majoziy ma'noda ushbu janr orqali bahs yuritiladi. Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida keltirilgan naqlar, ularda ifodalangan yomonlikning oqibati, ahl bo'lib hayot kechirish, insonlarning sabr-qanoatli bo'lishlari va boshqa insoniy fazilatlar kishilar qalbini yaxshilik hamda ezguliklar bilan bezaydi. "Yamonotliq jazosi" deb nomlangan naqlni ko'rib o'tamiz.

Bir kishining Qosim ismli bir o'g'li bor edi. Ota va onasining so'zig'a kirmasdan har xil yamon ishlarni qilur edi. Bolalar birla urushib, yaqolashub, kiyimlarini yirtib kelur erdi. Uyda onasi mehmon uchun asrab qo'ygan taomlarni yegan vaqtda, onasi:

– "Qosim, o'g'lim! Taomni sen yedingmu? – desa", men yegonim yo'q, mushuk yegondur", - der edi. Bora-bora otasining pulini ham o'g'urlab oladurg'on bo'ldi. Otasi bilib, "O'g'lim, pulni kim oldi?" - desa, - "Onam olgandur", - deb onasini o'g'ri qilur edi. Bir kuni otasi ustol ustig'a bir tanga pul qo'yub, o'zi uxlagan kishi bo'lub yo'tdi. Qosim kelib, sekin tangani olib, og'ziga soldi. Shul vaqt otasi ushlab olmoqchi bo'lgonda, tangani yutub yubordi. Tanga borub Qosimning halqumig'a tiqilib, jon berdi.

Ey bolalar! Ko'rdingizmi, yamonning yamonligi o'z boshig'a yetdi.

Bolaning voyaga yetib qanday inson bo'lishi avvalo oilasida oladigan tarbiyaga bog'liq. Yoshligidan munosib tarbiya ko'rgan farzand kun kelib ota-onasining orzu-havaslarini ro'yobga chiqaradigan komil shaxs bo'lib voyaga yetadi. Hikoya qahramoni Qosim ota-onasining so'ziga kirmaydigan quloqsiz bola bo'lib, kichik-kichik yomon ishlarni odat qilib ulg'aya bordi. Asta-sekin pul o'g'irlashni ham odat qildi. Buning ustiga onasiga tuhmat qilib o'z ishida uni aybdor qiladi. Otasi pul o'g'irlyotgani ustida ko'rib qolganida qilmishini berkitmoq uchun tangani yutadi, o'sha o'g'irlik moli uning hayotiga nuqta qo'yadi. Ota-ona vaqtida uning qiliqlariga jiddiy e'tibor qaratib tuzatish choralarni ko'rganda, Qosimning taqdiri shunday kechmagan bo'larmidi? O'zi qilayotganlaridan xulosa chiqarib, to'g'ri yo'lda yurganda hammasi boshqacha ro'y beradi edi. Nima bo'lganda ham bu dunyoda hech bir ish javobsiz qolmaydi. Yaxshilar o'z mukofotini olgandek, yomonlar ham jazosiz qolmaydi. Ushbu naql nafaqat yoshlarni, balki kattalarni ham yomon ishlardan qaytarishga undovchi tarbiyaviy saboqdir. Asarda "Ittifoq" deb nomlangan ahillikni, insonlar o'rtasidagi hamjihatlikni ulug'lovchi naql ham bor. Ushbu hikoya mazmuni bilan tanishamiz.

Jonivorlar ichinda eng kichigi chumolidir. Lekin o'zlari kichik bo'lsalar ham, nihoyatda g'ayratli, ittifoq hayvonlardur. O'zlaricha podshohlari, kattalari, askarlari bo'ludur. Ulug'lari nimani buyursa, shuni qilur. Ittifoq va g'ayratlari soyasinda

o'zlaridan katta-katta dushmanlardan qo'rqmaslar. Agar Ari kabi dushman kelub, birlariga tegsa, hamma-hammalari birdan yopushub, biri qo'lini, biri ayog'ini, biri qanotini qattiq tishlab, o'zlaridan necha barobar katta bo'lsa ham tezgina qochururlar.

Ko'rdingizmu, buning o'zi xo'b maydadur,
Birlashub arqon bo'lsa, fil boylanur,
Ittifoqa kuch-quvvat kor aylamas,
Ittifoqa jin ham ozor aylamas.

Hikoyada tirik jonzotlar birlashsa ne-ne ishlarga qodirligi mittigina chumolilar misolida ko'rsatib berilgan. Chumolilar shunchalik ahil bo'lib yashaydilarki, ularni bir don yoki yegulikni bir guruh bo'lib birgalikda sudrab inlariga olib kirib ketyotganlarini barcha ko'rgan va kuzatgan bo'lsa kerak. Ular o'zlari tomonidan tayinlagan boshliqning so'zlariga itoat qilib, bir tan-u bir jon bo'lib hayot kechirishadi. Jismonan yiriklikda fil bilan chumoli o'rtasida osmon bilan yerchalik farq bor. Shunga qaramay ular birlashib ish qilsalar, arqon yordamida filni yengishga-da qodirlar. Adib chumolilar hayot tarzi misolida insonlarni o'zaro hamjihatlikka, ahillikka va birlashib ish yuritmoqqa chorlaydi. Hayotda yana bir yaxshi insoniy fazilat borki, unga ega bo'lgan hech joyda qoqilmaydi va ranjmaydi. Ushbu xislatning nomi "Qanoat" deb nomlanadi.

Bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g'li bor edi. Ali qanoatli, Vali qanoatsiz edi. Bir kun otasi bozordan olma olub kelub, bolalarini sinamoq uchun chaqirub, mana, sizga olma beraman, - dedi. Vali tezlik birla kelub: "Otajon, menga hammasini bering", - dedi.

Ali sekingina kelub, menga birgina olma bersangiz bo'ladur, dedi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilub, quchog'iga olub, peshonasidan o'pub, ikki olma berdi. Ammo Valiga olma bermak qayda, balki qanoatsiz bo'lma, deb adab berdi.

Qanoat birla qorin to'ydirursiz,
Qanoat bo'lmasa, ko'p och bo'lursiz.
Qanoatsiz kishi bag'rini dog'lar,
Qanoatli kishi og'zini yog'lar.

Odamzod shunday yaratilganki, qancha ko'p narsaga ega bo'lsa ham kam deydi. Ega bo'lib turganidan ham afzalrog'ining sohibi bo'lishni xohlaydi. Vaholanki, o'zidan yomonroq ahvolda kun kechirayotdan, undan-da muhtojroq insonlar borligi haqida o'ylab, yashayotgan holatiga shukur qilishni o'ylamaydi. Yuqoridagi naqlda aka-uka Ali va Valining otasi tomonidan olma bilan sinalgani, Vali ochko'zligi evaziga hech vaqosiz qolgani, qanoatli bo'lgan Ali esa olmalar bilan birgalikda otasidan shirin so'zlar ham eshitgani hikoya qilingan. Uni o'qiguvchi voqeadan xulosa qilgan holda ochko'z bo'lmaslik, qanoatli bo'lishning yaxshi tomonlari va boriga shukur qilish kabi bebaho fazilatlarning egasi bo'lishi tabiiy.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining tarbiyaviy ahamiyati necha asrlardan buyon yuqori bo'lib, yoshlarning yuksak ma'naviyatli, ma'nun barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb

etadi. Unda aks ettirilgan har bir voqea, har bir sahna ma'lum darajada tarbiyaviy ahamiyati hamda o'z o'rnida dolzarbligi bilan insonlar hayotida muhim qo'llanma vazifasini o'tab kelmoqda. Ushbu asarni mutolaa qilgan kitobxon umr yo'llarida unda berilgan hikmatlardan to'g'ri foydalana olsa, o'z ko'zlagan maqsadlariga hech qanday to'siqlarsiz yeta oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: “Fan”, 2008. – 97 b.
2. Begali Qosimov va boshqalar. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – T.: “Fan va taxnologiya”, 2008. – 600 b.
3. Mirzayev S. O'zbek adiblari. – T.: “Fan”, 2002. – 280 b.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. – T., 2008. – 276 b.
5. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). – Samarqand: SamDU nashri. 2022. – 303 b.